

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA UNDA SUN'IY INTELLEKTNING TUTGAN O'RNI

Karimov Sodiq Shodiyor o'g'li
sodiqjonkarimov93@gmail.com

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali Kompyuter injiniring fakulteti o'qituvchisi

Abdurahimov Yoqubxon Anvarxon o'g'li
yoqubxonabdurahimov001@gmail.com

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali Kampyuter injiniring fakulteti
3-bosqich talabasi*

Yaxshimurodov Asilbek Abdurauf o'g'li
yaxshimurodovasilbek00@gmail.com

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali Kampyuter injiniring fakulteti
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola sun'iy intellektning axborotlashgan jamiyat bilan uzviy bog'liqligi, sun'iy intellektning insoniyat faoliyatida tutgan o'rni, sun'iy intellekt texnologiyasi va sun'iy intellekt tizimlarini hayotga tatbiq qilishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: telekommunikatsiya, dasturiy ta'minot, intellect, axborotlashgan jamiyat, information inqilob, globallashuv, sun'iy intellekt.

THE INFORMATION SOCIETY AND THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN IT

ABSTRACT

This article discusses the integral relationship of artificial intelligence with the information society, the role of artificial intelligence in human activities, the importance of artificial intelligence technology and the implementation of artificial intelligence systems.

Keywords: telecommunications, software, intellect, information society, information revolution, globalization artificial intelligence.

Axborotlashgan jamiyat termini Yaponiyada paydo bo'ldi. Mutaxassislar ushbu termin yuqori sifatli axborot mo'l-ko'l bo'lgan va uni saqlash, taqsimlash va foydalanish uchun barcha vositalarga ega bo'lgan jamiyatni ifodalaydi, deb e'tirof

etadilar. Axborotlar manfaatdor kishilarga tez va oson hamda qulay shaklda etkazib beriladi. Axborot xizmatlari uchun narxlar shu darajada past bo'lishi kerakki, jamiyatning har bir a'zosi undan ehtiyojiga qarab foydalana olsun. Akademik V.A. Izvozchikov axborotlashgan jamiyat xususiyatlarini ifoda etuvchi quyidagi ta'rifni taklif etgan: "Axborotlashgan jamiyat deb, jamiyatning barcha sohalari hamda a'zolari hayoti va faoliyatida kompyuter, telematika va boshqa vositalar aqliy mehnat qurollari sifatida ishlatiluvchi, kutubxonalardan foydalanish, katta tezlik va aniqlikda axborotlarni qayta ishlash, real va prognozlashtirilgan hodisalarni modellashtirish, ishlab chiqarishni boshqarish, ta'limni avtomatlashtirish va boshqa vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyatga aytiladi.

Sun'iy intellekt o'zi nima?

Sun'iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi.

Hozirda sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi.

1990 yillarda sun'iy intellekt taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1997 yilda **Deep Blue** nomli **IBM** kompyuteri shaxmat bo'yicha jahon chempioni **Garri Kasparovni** yenggan tarixdagi ilk kompyuter bo'ldi. Sun'iy intellektning yorqin namunalaridan yana biri – **IBM Watson** superkompyuteri bo'lib, u o'z bazasidan kelib chiqib muayyan tilda berilgan savollarga javob beradi. Shuningdek, ko'pchilikning doimiy hamrohiga aylanib ulguragan mobil yordamchi Siri, fotosuratlarni qayta ishlovchi Prisma kabi dasturlarni Sun'iy intellektning yutuqlaridan biri sifatida qayd etish mumkin. Hozirga kelib sun'iy intellekt keng ko'lamda ommalashib kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Masalan, Xitoydagi **Inchuan** shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo'q. Hisob-kitoblar bilan bog'liq barcha jarayonlar sun'iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyofasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Insoniyatning axborotlashgan jamiyat sari bosib o'tgan yo'li.

Axborot hamisha jamiyat hayotida ham, alohida shaxs hayotida ham muhim o'rin egallagan. Insoniyat tarixida axborotlarni yig'ish, saqlash va uzatish vositalarining rivojlanish jarayoni bir tekis kechmagan va bir necha bor axborot sohasida "Informatsion inqilob" deb ataluvchi global ahamiyat kasb etuvchi hodisalar yuz bergan.

Birinchi axborot inqilob yozuvning kashf etilishi bilan bog'liq. Yozuv insoniyatga bilimlarni to'plash va uni avlodlarga uzatish imkonini berdi. O'z yozuviga ega bo'lgan sivilizatsiyalar boshqalariga nisbatan yuqori iqtisodiy va madaniy darajaga

erishganligi ma'lum. Bunga misol qilib, Qadimgi Misr, Ikki daryo oralog'i davlatlari, Xitoy kabilarni keltirish mumkin. Bu borada piktografik va ieroglifik yozuvdan alfavitli yozuvga o'tish alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Ikkinchi axborot inqilob (*XVI asr o'rtalari*) – kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan bog'liq. Bu hodisa axborotlarni saqlabgina qolmay, ularni ommaga yoyish imkoniyatini yaratdi. Savodxonlik alohida tabaqalar doirasidan chiqib, ommaviy tusga kirdi. Bular ilmiy texnika rivojlanish jarayonini tezlashtirdi. Kitoblar bilimlarning alohida mamlakat chegarasidan chiqib, umuminsoniy sivilizatsiya yaratilish jarayoniga turtki bo'ldi.

Uchinchi axborot inqilob (*XIX asr oxiri*) aloqa vositalarining taraqqiyoti bilan bog'liq. Telegraf, telefon va radio ma'lumotlarni turli masofalarga operativ uzatish va qabul qilish imkonini berdi. Insoniyat taraqqiyotining aynan shu bosqichi "globallashuv" jarayonining debochasi bo'lib qoldi. Axborot uzatish vositalarining taraqqiyoti tezkor va ishonchli aloqa vositalariga muxtoj bo'lgan fan va texnikaning gurkirab rivojlanishiga olib keldi.

To'rtinchi axborot inqilob (*XX asrning 70–yillari*) mikroprotessorli texnika va xususan, *personalkompyuterlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq*. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, axborot revolyutsiyasiga XX asr o'rtalarida kompyuterlarning paydo bo'lishi emas, mikroprotessorli tizimlarning keng tarqalishi sabab bo'ldi. Ushbu jarayon axborotlarni saqlash va izlash tizimlarini radikal o'zgartirib, kompyuterli telekommunikatsiyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi. Aynan to'rtinchi information inqilob "Axborotlashgan jamiyat" rivojiga asos soldi.

Sun'iy intellektning axborotlashtirishdagi ulkan xizmatlari.

Bugungi kunda ayrim davlatlarda robot-hamshiralari, xaydovchisiz transport vositalari, buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Hatto politsiya xodimlarining ba'zi vazifalarini ham maxsus robotlar bajarishyapti. Olimlar ularning tashqi ko'rinishini imkon qadar odamlarnikiga o'xshatishga urinishmoqda. Bundan tashqari, sun'iy intellekt jurnalistlarning doimiy ko'makchisiga aylanib ulgurgan. Masalan, Associated Pressda "ishlayotgan" robotlar moliyaviy hisobotlarni yozib boradi. Sun'iy intellekt ning qo'llanilishi ushbu nashrda har chorakda beriladigan yangiliklarni 300 tadan 4400 taga oshirdi. McKinsey Global Instituti tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, 2030 yilga borib, butun dunyo bo'ylab xodimlarning kamida 14 foizi raqamlashtirish, robototexnika va sun'iy intellektning rivojlanishi tufayli o'z martabalarini o'zgartirishi kerak bo'ladi. Shuningdek, ishsizlik g'aznachilar, pochta xodimlari, hisobchilar va idora xizmatchilariga xavf solishi mumkinligi aytilgan. Sun'iy intellekt ularning vazifasini bemalol bajara oladi.

Qisqa qilib aytganda, sun'iy intellekt muayyan vazifalarni bajarishda inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo'lgan tizim yoki texnologiya bo'lib, olingan

ma'lumotlardan foydalanib asta-sekin mukammallashib boradi. Umuman olganda sun'iy intellekt format ham, funktsiya ham emas, balki bu jarayon bo'lib, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish kabilarni o'z ichiga oladi. Sun'iy intellekt haqida so'z borar ekan, uning biznesdagi va axborot texnologiyalardagi o'rmini tahlil qilish lozim. Sun'iy intellektning ushbu yo'nalishlarga sekin-astalik bilan kirib borishi, sun'iy intellekt vositalarining soni oshishini ta'minlaydi

Yuqorida sanab o'tilgan sun'iy intellekt qo'llaniladigan sohalar hozirgi kundagi insoniyat faoliyatidagi muhim sohalar desak mubolag'a bo'lmaydi. Sun'iy intellekt nafaqat sanab o'tilgan sohalarda balki boshqa yo'nalish va sohalarda ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sun'iy intellektning jamiyatda, sanoatda, fanda va inson hayot faoliyatida tutgan o'rni kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Suyumov, J. Y. (2021). Theoretical basis of active teaching technology on the basis of computer imitation models. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(7), 205-210.
2. Raximov, D. S. (2021). DIVERSIFIKATSIYA HUDUDLAR SANOATNI MUVOZANATLI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 199-207.
3. Рахимов, Д. Ш. (2021). САНОАТ ИҚТИСОДИЁТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИЛАЁТГАН МАҲСУЛОТЛАРНИ ДИВЕРСИКАЦИЯЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Scientific progress*, 1(6), 505-511.
4. Khusanova, M. K. (2021). ANALYSIS OF DISCRETE CONVOLUTION IN THE MATLAB PROGRAM. *Scientific progress*, 2(4), 1023-1028.
5. Pulatov, G., Ganiev, S., & Karimova, G. POSSIBILITIES OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN ENSURING THE QUALITY OF EDUCATION.
6. Bekmuratov Q.A. Sun'iy intellekt va neytron tarmoqlari (13-17)